

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILIVA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ABDULLA ORIPOV**

**HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BO'YICHA**

Dastur va uslubiy qo'llanma

**Toshkent - 2020**

Ushbu dastur va uslubiy qo'llanma O'zbekiston Xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov hayoti va ijodini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun ishlab chiqildi.

Unda Abdulla Oripov hayoti va ijodi to'liq qamrab olingan. Shoir tarjimai holi va asarlariga doir ma'lumotlar yoritildi. Uslubiy qo'llanmada shoir g'oyalarining mamlakatimizda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yutug'ini ta'minlash hamda yosh avlod adabiy-estetik tafakkuri va ma'rifiy saviyasini o'stirishdagi ahamiyatiga alohida diqqat qaratildi.

Dastur va uslubiy qo'llanma Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

**Shuhrat**

filologiya  
professor

**Sirojiddinov,**

fanlari doktori,

Tuzuvchi:

**Nurboy Jabborov,**

filologiya fanlari doktori,  
professor

Taqrizchilar:

**Nafas Shodmonov,**

filologiya fanlari doktori,  
professor

**Suvon Meliyev,**

filologiya fanlari nomzodi

*Mazkur uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdaggi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.*

## I. KIRISH

Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliv ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kursning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo‘lib, Abdulla Oripov hayot yo‘li, she’rlari va dostonlarining milliy adabiyotimiz rivojida tutgan o‘rni, ijodkor uslubining o‘ziga xosligi va badiiy mahorati yoritilgan. Shoir asarlaridagi g‘oyalarni yosh avlod ongi va ruhiga singdirish dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

## II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, mutafakkir ijodkorlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Abdulla Oripov hayoti va ijodiy merosini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, shoir asarlaridagi inson kamoloti va jamiyat ravnaqi, vatanparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalarining bugungi kun uchun ahamiyatini yoritish, Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti va ma’naviyati rivojida tutgan o‘rnini asoslashdan iborat.

## III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- Abdulla Oripovning o‘zbek she’riyati, adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotida tutgan o‘rnini asoslab berish;
- shoir hayot yo‘lini, ijodiy kamolot bosqichlarini manbalar asosida yoritish;
- ijodkor she’riyatining falsafiy mohiyati va ko‘lami haqida tasavvur berish;
- Abdulla Oripov she’riyatidagi vatanparvarlik, xalqparvarlik g‘oyalarining badiiy talqini masalasiga e’tibor qaratish;
- shoir she’riyatida milliy ruhning namoyon bo‘lish yo‘llari va usullarini asoslash;
- “Jannatga yo‘l”, “Sohibqiron”, “Ranjkom” va “Istiqlol manzaralari” dostonlarining o‘zbek dostonchiligi taraqqiyotida tutgan o‘rnini ko‘rsatish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Abdulla Oripov asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish.

## IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

- O‘zbek zamonaviy she’riyatining, xususan, Abdulla Oripov asarlarining bugungi milliy mafkuramiz bilan hamohang jihatlarini anglab yetishlari;
- Abdulla Oripovning hayoti va kamolot yo‘lini idrok etishlari, shoirning kitob mutolaasiga bo‘lgan e’tiboridan o‘z ma’rifiy saviyasini o‘stirishda xulosa chiqarishlari;

- Abdulla Oripov she’riyati bilan tanishish, ularda ifodalangan g‘oyalarni talqin qila olish, shoirning o‘zbek she’riyati taraqqiyotida tutgan o‘rnini to‘g‘ri baholay olish;
- “Jannatga yo‘l”, “Sohibqiron”, “Ranjkom” va “Istiqlol manzaralari” dostonlarini o‘rganish, ularning shoir ijodiy salohiyatini yoritishdagi ahamiyatini anglash;
- shoirning ona, Vatan, xalq obrazi ifodalangan she’rlarini o‘rganish, ularda yoritilgan g‘oyalarni tahlil qila olish;
- shoir asarlarining zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojida tutgan o‘rnini baholay bilish.

## **V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI**

Fakultativ o‘quv kursi – “Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Jahon adabiyoti”, “Madaniyatshunoslik”, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

## **VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI**

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

<b>No</b>	<b>Mashg‘ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	<b>JAMI:</b>	<b>20</b>

Mashg‘ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	<b>Mavzular</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Kutiladigan natija</b>	<b>soat</b>
<b>MA’RUZALAR</b>				
1	Abdulla Oripovning hayot yo‘li	Abdulla Oripovning oilaviy muhiti, qalbida adabiyotga muhabbatning uyg‘onishi. Hozirgi Milliy universitet filologiya fakultetida Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonovlar adabiy to‘garagi ijodiga parvoz bag‘ishlagani.	Talaba yoshlar Abdulla Oripov hayot yo‘lidan ibrat oladi. Har bir ishda, ijodda, hatto og‘ir va murakkab vaziyatlarda ham o‘zini, ijodiy salohiyatini Vatan va xalq manfaatiga to‘liq safarbar eta bilish fazilatidan	2

		yulduzi” jurnalida adabiy xodimlikdan turli nashriyotlarda muharrirlikkacha, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi maslahatchiligidan raisligigacha, Oliy Majlis deputatligidan senatorlikkacha bo‘lgan qizg‘in mehnat va ijtimoiy faoliyati ijodiy kamolotiga xizmat qilgani izohlanadi.	o‘zlari uchun xulosa chiqaradilar.	
2	Shoir she’riyatida milliy ruh ifodasi	Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘lishi, o‘zida millatning ruhini ifodalashi, Abdulla Oripov ijodda milliy ruh ijodiy jarayoning asosiy mezoni sanal-gani tushuntiriladi. Jahan adabiyoti tajribasidan foydalanish taqlid, milliy ruhni boy berish evaziga bo‘lmasligi zarurligi haqidagi shoir qarashlari keltiriladi. Ijodkor she’riyatida milliy ruh mazmunda, badiiy shaklda, obrazda va uslubda ifodalangani tahliliy asoslanadi.	Milliy ruh ifodasi milliy adabiyot ravnaqining asosiy shartlaridan biri ekani izohlanadi. Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh betakror mazmun, go‘zal badiiy shakl, ohorli obraz va o‘ziga xos uslubda namoyon bo‘lgani haqida tushuncha hosil qilinadi.	2
3	Abdulla Oripov she’riyatida istiqlol g‘oyasining badiiy talqini	Abdulla Oripov dastlabki she’rlaridanoq sho‘rolar istibdodini rad etgani, inson qadri va huquqlarining toptalishi, milliy tilning kansitilishi, xalqimiz tabiiy boyliklarining tashib ketilishi, paxta yakkahokimligi natijasida xalqning ruhan sinishi kabi fojialarga bo‘lgan murosasiz munosabatini tutilmagan obrazlar, ohorli tashbehtar, ta’sirchan istioralar orqali tasvirlagani	“Ona tilimga”, “Minorai kalon tepasidagi laylak”, “O‘zbekiston”, “Tilla baliqcha”, “Avlodlarga maktub” she’rlari tahlili asosida Abdulla Oripov she’riyatida milliy istiqlol g‘oyasining betakror badiiy talqin etilgani tushuntiriladi.	2

		ochib beriladi. Milliy istiqlolga erishilgach, xalqimiz qalbi va ongiga egamenlik ruhini singdirish yo‘lida betakror asarlar yozgani tahliliy dalillanadi.		
4	Abdulla Oripovning milliy dramatik doston taraqqiyotidagi o‘rni	“Jannatga yo‘l”, “Hakim va ajal”, “Sohibqiron”, “Ranj-kom” va “Istiqlol manzalarlari” dramatik dostonlari tahlili orqali Abdulla Oripov o‘zi yashagan davr va umuman jamiyat hayoti-ga doir ziddiyatlarni, inson va uning taqdiri, buyuk shaxsiyatlarning tarixda tutgan o‘rni, muhabbat va nafrat, hayot va o‘lim kabi umumbashariy hodisalar mohiyatini hamda istiqlol atalmish ne’mat millatning millat bo‘lishida nechog‘liq katta ahamiyatga ega ekanini yirik epik ko‘lam va yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlay olgani tushuntiriladi. Bu orqali she’riy drama taraqqiyotiga tengsiz hissa qo‘sha olgani asoslab beriladi.	Talaba yoshlarda doston janrining xususiyatlari, voqyelik katta epik ko‘lamda, yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan bu janr imkoniyatlari keng ekani haqida tasavvur hosil qilinadi. Abdulla Oripov dostonlarining milliy adabiyotimizda ushbu janr taraqqiyotidagi o‘rni tushuntiriladi.	2

#### SUHBAT-MULOQOTLAR

1	Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazining badiiy ifodasi	Abdulla Oripov sh’riyatida Vatan obrazi yetakchi o‘rinda turishi, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” degan savolni ungacha hyech kim bu tarzda kun tartibiga qo‘ya olmagani, buning o‘sha zamon uchun qanchalik jasorat bo‘lgani, “O‘zbekiston” she’rida oldida ona yurtimizning muazzam kechmishi va buguni bor	“Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “O‘zbekiston”, “Bahor”, “Qarshi qo‘srig‘i”, “Vatan” kabi she’rlari tahlili orqali Vatan obrazi Abdulla Oripov she’riyatining asosini tashkil etishi, shoir asarlarida Vatan va ona obrazi mutanosib tasvirlanishi haqida tasavvur hosil qilinadi.	2
---	---	---	--	---

		murakkabligi va ko‘lami bilan betakror poetik tasvirlangani tushuntiriladi. Qaysi mavzuda she’r yozmasin, shoirning ko‘z oldida Ulug‘ Vatan turishi, o‘sha Ulug‘ Vatanning farzandi sifatida qo‘liga qalam olishi, Vatan shoir she’rlarida ona obrazi bilan baqamti kelishi tahliliy asoslab beriladi.		
2	Abdulla Oripov she’riyatida xalq obrazi	Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazidan keyin eng asosiy o‘rinni xalq obrazi egallashi, shoir asarlarining tub negizida xalqparvarlik tuyg‘usi yuksak badiiy talqin etilishi tushuntiriladi. Ijodkor she’riyatida xalq obrazi: 1) o‘zi mansub millat; 2) onaga qiyoslanuvchi suyukli el; 3) xalq darajasiga o‘sib chiqmagan olomon kabi ma’nolarda qo‘llanishi, qay bir mazmunda qo‘llanmasin, xalq obrazi ijodkor badiiyestetik idealining asoslari dan birini tashkil etishi izohlanadi.	Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “O‘zbekiston”, “Xalq”, “Yuzma-yuz” kabi she’rlarining tahlili asosida ona xalqqa bo‘lgan muhabbat tasviri shoir asarlarida yetakchi o‘rinda turishi haqida tushuncha hosil qilinadi. Xalqparvarlikning ahamiyati anglab yetiladi.	2
<b>MUNOZARALAR</b>				
1	Abdulla Oripov sayohatnomalari badiiyati	Abdulla Oripov sayohatnomalari shoirning Amerika, Italiya, Yaponiya, Jeneva kabi mamlakatlarga qilgan sayohatlari natijasida yaratilib, “Everest va ummon”, “Italiya turkumi”, “Yapon ohanglari”, “Jeneva daftari”, “Haj daftari”, “Everest va ummon” singari to‘plamlarda jamlangani	Abdulla Oripov sayohatnomalarining mohiyati anglanadi. Qaerga, qaysi mamlakatga safar qilmasin, shoir asarlari da milliy ruh betakror talqin etilishi, she’rlari tagmatnidan Vatanga muhabbat tuyg‘usi yorqin namoyon bo‘lib turishi haqida tasavvur	2

		<p>tushuntiriladi.</p> <p>Sayohatnomalarining obraz va timsollsr olamiga izoh beriladi.</p> <p>Shoir sayohatnomalari mazmunning betakrorligi, ifodaning milliy ruhga tayanishi, Vatanga muhabbat tuyg‘usining ustuvorligi, badiiyatning mukammalligi bilan alohida ajralib turishi tahliliy asoslanadi.</p>	hosil qilinadi.	
2	Abdulla Oripovning hajviy xarakter yaratish mahorati	<p>Abdulla Oripov hajviyoti satirik kulgingin kuchliligi, hajviy xarakterlar yaratilishiining o‘ziga xosligi, kinoya usulining ustuvorligi, xalqona ifoda imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalaniishi bilan xarakterlanishi tushuntiriladi.</p> <p>Shoir hajviyotida kulgi vositasida muhim ijtimoiy-axloqiy masalalarni o‘rtaga qo‘yish, hayot haqiqatini ayta olish, davrning hajviy tiplarini yaratish tamoyili yetakchilik qilishi, xasislik, munofiqlik, axloqan tubanlik, johillik, iymonsizlik, e’tiqodsizlik, qoloqlik kabi illatlarni ayovsiz fosh etishi, muayyan hajviy obraz va timsollar zamiriga katta ma’no yuklay olishi haqida tushunchaga ega bo‘lishiga erishiladi.</p>	Talaba yoshlarning Abdulla Oripov hajviy asarlari orqali jamiyatdagi inkon kamolotiga va jamiyat ravnaqiga to‘siq bo‘layotgan xasislik, munofiqlik, axloqan tubanlik, johillik, iymonsizlik, e’tiqodsizlik, qoloqlik kabi illatlarni ayovsiz fosh etishi, muayyan hajviy obraz va timsollar zamiriga katta ma’no yuklay olishi haqida tushunchaga ega bo‘lishiga erishiladi.	

#### TAQDIMOT

1	“Sohibqiron” dramasida Amir Temur obrazi	Abdulla Oripov ilk she’laridan Amir Temur obraziga e’tibor qaratgani, biroq	Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi tarix haqiqat badiiy	2
---	--	---	--	---

	tasviri	<p>kommunistik mafkura yakka hukmronligi sharoitida ijodiy niyatiga muvofiq tasvirlay olmagani, shu bois “Sohibqiron” dramasiga qo‘l urgani tushuntiriladi. Dramada Sohibqironning turk sultonii Boyazid Yildirim bilan jangining qisqa tafsiloti berilishi, Amir Temurning shaxs, sarkarda va hukmdor sifatidagi obrazi mukammal tasvirlangani, asarda buyuk jahongir faoliyati tarix qonuniyatlarini mahsuli sifatida talqin etilgani haqida tushuncha beriladi. Asar hatto yarim dunyoni titratgan Sohibqironning ham umri chegaralanganiyu adolat va iymon barqaror qolishi haqidagi badiiy xulosa bilan yakunlanadi.</p>	<p>haqiqatga aylantirilgani bilan qimmatli ekani, shoir Amir Temur hayotining eng ta’sirli, ibratli pallasini dramatik dostoniga aylantirgani, asar adolat va iymonning qilich va qalqondan afzalligi haqidagi xulosaga olib kelishi haqida tasavvur hosil qilinadi.</p>	
2	“Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumlarining Abdulla Oripov ijodida tutgan o‘rni	<p>“Hikmat sadolari” ellikdan ortiq muborak hadis mazmuni she’riy sharhlangani bilan hazrat Alisher Navoiy “Arba’in”ini an’anasining davomi ekani tushuntiriladi. Ushbu turkum ijodiy tanlovda g‘olib deb topilgani bois shoirga haj safariga borish imkoniyati berilishi va haj ibodatini ado etgan shoir “Haj daftari” turkumini iymon-e’tiqodga oid nazm namunalari, yaxshilikka chorlov va yomonlikdan qaytarish mavzuidagi she’rlar tarzidagi tasnif asosida o‘rganish mumkinligi haqida tushuncha</p>	<p>Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumlariga kirgan she’rlarining mazmun-mohiyati, ma’rifiy ahamiyati, yosh avlod ongiga milliy-diniy qadriyatlarni singdirishga xizmat qilishi haqida tushunchaga ega bo‘linadi.</p>	2

		berilib, bu turkum she'riyatda ilohiy-irfoniy tuyg'ular ifodasining yuksak namunasi ekani bilan milliy adabiyotimizda o'ziga xos hodisa bo'lgani bayon etiladi.	
--	--	---	--

## **VII. “ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI**

### **“ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI” KURSINING SILLABUSI**

<b>Fanning qisqacha tavsifi</b>				
OTMning nomi va joylashgan manzili:				
Kafedra:	O‘zbek tili va adabiyoti			
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:				
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:			e-mail:	
Dars vaqtি va joyi:			Kursning davomiyligi:	
Individual grafik asosida ishslash vaqtি:				
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim:
	Ma’ruza:	8	Seminar	12
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Jahon adabiyoti”, “Madaniyatshunoslik”, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.			
<b>Fanning mazmuni</b>				
Kursning maqsad va vazifasi:	Fanning asosiy maqsadi – talaba yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ijodkorlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Abdulla Oriporov hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, she’riyatning komil axloq va yuksak ma’naviyat tuyg‘usini tarbiyalashdagi o‘rnini Abdulla Oriporov asarlari			

	<p>misolida ohib berish, ulug‘ shoirning xalqimiz adabiy-estetik tafakkuri rivoji va bugungi islohotlar yutug‘ini ta’minlashdagi o‘rnini asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– zamonaviy o‘zbek she’riyati va milliy adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotida Abdulla Oripovning tutgan o‘rni va mavqeyini ohib berish;</li> <li>– shoir she’riyatida milliy ruh ifodasining xususiyatlarini yoritiish;</li> <li>– ijodkor asarlarida istiqlol g‘oyasining badiiy talqini masalasini o‘rganish;</li> <li>– Abdulla Oripovning o‘zbek dostonchiligi taraqqiyotidagi o‘rnini baholash;</li> <li>– shoirning Vatan va xalq obrazi badiiy talqin etilgan asarlaridan talaba yoshlar qalbida vatanparvarlik va xalqparvarlik ruhini tarbiyalashda foydalanish;</li> <li>– ijodkor sayohatnomalari tahlili misolida Vatan va millatni jahonning taraqqiy etgan davlatlari va xalqlari darajasiga yuksaltirish g‘oyasini targ‘ib etish;</li> <li>– Abdulla Oripovning hajviy mahoratini o‘rganish asosida shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqiga to‘sinq bo‘layotgan illatlarni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish;</li> <li>– “Haj daftari” va “Hikmat sadolari” turkum she’rlaridagi hikmatlarning yosh avlod qalbida iymon, e’tiqod va ma’rifatni tarbiyalashdagi o‘rnini dalillash.</li> </ul>
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o‘zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- zamonaviy o‘zbek she’riyatining taraqqiyot tamoyillari va bu jarayonda Abdulla Oripov she’riyatining o‘rni;</li> <li>- shoir asarlarida milliy ruh ifodasining namoyon bo‘lish usullari;</li> <li>- Abdulla Oripovning she’riy drama taraqqiyotiga qo‘sghan beqiyos hissasi <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>;</li> <li>- shoir she’riyatidagi milliy istiqlol orzusi va mustaqil Vatan taraqqiyotiga doir g‘oyalar ahamiyatini;</li> <li>- ijodkor asarlaridagi vatanparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalarining barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni va rolini;</li> <li>- “Sohibqiron” dramasi misolida buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lish hayotiy ehtiyoj ekanini <i>bilishi va ularдан foydalana olishi</i>;</li> <li>- Abdulla Oripov sayohatnomalari tahlili misolida Vatan va millat taraqqiysi g‘oyasini targ‘ib etish;</li> <li>- shoir hajviy asarlari mohiyatini va ularning jamiyatda o‘z-o‘zini tanqid ruhini tarbiyalash vazifasini tushuntira olish;</li> <li>- “Haj daftari” va “Hikmat sadolari” turkum she’rlaridagi</li> </ul>

	hikmatlar mohiyatini anglash va erkin bayon etish <i>ko 'nikmalariga ega bo 'lishi kerak.</i>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

**Sillabus taqvim:**  
**O'tiladigan mavzular ro'yxati:**

Nº	Mavzular	Ma'ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Abdulla Oripovning hayot yo'li	2 soat			
2	Shoir she'riyatida milliy ruh ifodasi	2 soat			
3	Abdulla Oripov she'riyatida istiqlol g'oyasining badiiy talqini	2 soat			
4	Abdulla Oripovning milliy dramatik doston taraqqiyotidagi o'rni	2 soat			
5	Abdulla Oripov she'riyatida Vatan obrazining badiiy ifodasi		2 soat		
6	Abdulla Oripov she'riyatida xalq obrazi		2 soat		
7	Abdulla Oripov sayohatnomalari badiiyati			2 soat	
8	Abdulla Oripovning hajviy xarakter yaratish mahorati			2 soat	
9	"Sohibqiron" dramasida Amir Temur obrazi tasviri				2 soat
10	"Hikmat sadolari" va "Haj daftari" turkumlarining ma'rifiy ahamiyati				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар – Тошкент: Sharq, 2019. 2. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият.– Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015. 3. Назаров Б. Абдулла Орипов. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1999.			

	4. Қўшжонов М. Абдулла Орипов. / Танланган асарлар – Тошкент: Sharq, 2018.
Qo'shimcha adabiyotlar:	<p>1. Абдулҳакимова О. Ижод оламининг сирлари. //Шарқ юлдози, 2019. –Б.144-148</p> <p>2. Абдураҳмонов Қ. Буюклар каҳкашонида. Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2018</p> <p>3. Жабборов Н. Гўзал ташбих, сирли рух. /Озод Ватан саодати: Беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: Адиб, 2013, 315-326-бетлар.</p> <p>4. Жабборов Н. Киноя ва рамзлар замиридаги хақиқат. /Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. –Б. 3-17.</p> <p>5. Жўракулов У. Армон талқинлари. /Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 143-151.</p> <p>6. Йўлдош Қ. Сувратланган миллий рух. /Сўз ёлқини. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015.</p> <p>7. Кўчимов А. Мен шоирман, истасангиз шу... – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2018.</p> <p>8. Мели С. Сўзу сўз. – Тошкент: Sharq, 2020.</p> <p>9. Улуғов А. Асл асарлар сехри. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015.</p> <p>10. Шарафиддинов О. Мувашшах. /Танланган асарлар – Тошкент: Sharq, 2019. –Б. 108-128.</p> <p>11. Шодмонов Н. Шоир ижодининг олмос қирралари. /Ўзимники эрур шу созим. –Қарши, 2011. – Б. 44-54.</p> <p>12. Қўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. – Тошкент: Маънавият, 2000.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti	<p>1. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p> <p>2. <a href="http://www.centrasia.org">www.centrasia.org</a></p> <p>3. <a href="http://www.ziyouz.uz">www.ziyouz.uz</a></p> <p>4. <a href="http://www.kitobxon.com">www.kitobxon.com</a></p>

## “ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING MA’RUZA TEXNOLOGIYASI

<b>Vaqti:</b> 2 soat	<b>Talabalar soni nafar</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	<b>Muammoli ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Abdulla Oripov hayoti va ijodiga doir yangi ilmiy qarashlar asosida shoir asarlarining zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyotidagi o‘rnini baholash, ijodkor nazmida vatanparvarlik va xalqparvarlik g‘oyasining yoritilishi hamda adabiy merosini o‘qitishning eng samarali usullarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - Abdulla Oripov she’riyatining falsafiy mohiyati va badiiyati bilan tanishtirish; - shoir she’riy asarlarining obrazlar olami haqida tushuncha berish; - ijodkorning zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyotida tutgan o‘rni to‘g‘risida tasavvur berish.	<b>O‘quv faoliyatining natijalari.</b> <i>Talaba:</i> - Abdulla Oripov she’riyatining falsafiy mohiyati va badiiy mahorat sirlarini anglaydi; - shoir asarlarini tahlil qilish malakasini egallaydi ; - Abdulla Oripov she’riyatining bugungi kun uchun ahamiyatini tushunib yetadi.
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Visual ma’ruza, blits-so‘rov, bayon qilish, klaster, “BBB” texnikasi
<b>O‘qitish vositalari</b>	Ma’ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
<b>O‘qitish shakli</b>	Jamoa va guruh bo‘lib ishlash
<b>O‘qitish shart-sharoiti</b>	Elektron doska bilan jihozlangan xona

### MA’RUZA MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat	
	O‘qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O‘quv mashg‘uloti- ga kirish. 10 daqiqa</b>	O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg‘ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta’limiy faoliyatga tayyor bo‘ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
<b>2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa</b>	Ma’ruza mashg‘uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil qiladi. Abdulla Oripov she’riyatining	Mashg‘ulot mavzusini bo‘yicha nimalarni bilishlari yoki bilishni istashlari aniqlanadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning

	<p>o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi. Shoir dramalarining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida ma'lumot beradi. Sayohatnomalari va hajviy mavzudagi asarlarini tahlil qiladi (ma’ruza matni tayanch o‘quv axborotida keltiriladi).</p> <p>Ma’ruzani bayon qilish davomida interfaol o‘qitish usullarini qo’llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>yakuniy bosqichida to‘ldiriladi. Talabalarda ta’limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o‘quv-bilish faoliyatları to‘g‘ri rejalashtiriladi. Ularda ta’limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko‘nikmalari shakllanadi.</p> <p>Talabalar o‘qituvchi bergan muammoli savollarga shaxsiy nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar.</p> <p>O‘rganilayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat shakllanadi, talabalar faollashadi.</p> <p>Taqdimotda keltirilayotgan ma’ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar.</p> <p>Talabalar faol hamkorlikda ta’lim olishni o‘rganadilar, ularda onglilik va mas’uliyat kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o‘qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o‘z nuqtai nazarlarini bildiradilar.</p>
<b>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</b>	Talabalar tomonidan ma’ruzada keltirilgan o‘quv axborotining o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig‘i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.	Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.
<b>Mustaqil ta’lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</b>	Mavzuni to‘liq o‘zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.	Mavzu bo‘yicha maqola tayyorlaydilar.

## VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR

O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirish faoliyati.

Ta'lism-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lism-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, muloqot, munozara va taqdimot mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limga didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, muloqot, munozara va taqdimot mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ta'lism tizimida interfaol ta'lism texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

**"Interfaol"** tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") "inter" – o'zaro, ikki taraflama, "act" – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.


**Interfaol ta'lim** – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida bиргаликда, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

**Interfaollik** ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida bиргаликда, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.


Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rnlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

### **Interfaol ta'limning asosiy belgilari**



Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo’llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta’limda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim asosiy o’rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko’ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilishi talab qilinmoqda. O’zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo’naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Ushbu ta’lim pedagog va magistrant o’rtasidagi o’zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e’tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Modulli ta’lim texnologiyasi.
2. Muammoli ta’lim texnologiyasi.
3. Interfaol ta’lim texnologiyasi.
4. Individual ta’lim texnologiyasi.
5. Masofaviy ta’lim texnologiyasi.
6. Kompyuter ta’lim texnologiyasi.
7. Hamkorlik ta’lim texnologiyasi.
8. Loyiha ta’lim texnologiyasi.
9. Dasturiy ta’lim texnologiyasi.
10. Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasi.
11. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi.
12. O’yin texnologiyalari.
13. Gender ta’lim texnologiyasi.
14. Quvvatni tejovchi ta’lim texnologiyasi.

Mazkur ta’lim texnologiyalaridan *modulli ta’lim*, *muammoli ta’lim* va *interfaol ta’lim texnologiyalarini* faol qo’llash tavsiya qilinadi.

Ta’lim jarayonida faol qo’llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys stadi** hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo’llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishi e’tirof etilmoqda.

**Keys-stadi** – (inglizcha *case* – to’plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta’lim) keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo’naltiradigan haqiqiy yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o’qitish metodi.

**Keys-stadi usuli qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi**  
**Ishlar bosqichi va mazmuni**

<b>Ishlar bosqichi va mazmuni</b>	<b>F a o l i y a t</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	<b>Ta’lim oluvchi</b>
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg‘ulotlarda arqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasи bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojla nishiga ta’sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushun-chalari bo‘yicha tezkor-so‘rov o‘tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg‘ulotda ishslash tartibi, baholash ko‘rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alovida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishslash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e’tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo‘lla-rini aniqlashni, so‘ngra uni yechish topshirig‘ini beradi	Keys materiallari ni muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag‘ini to‘ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko‘rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag‘ini to‘ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag‘ini tayyorlash bo‘yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o‘zaro baholashni tashkil-lashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e’tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot Qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

## KONSEPTUAL JADVAL

O‘rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o‘rgatish, muammoni tahlil qilish, ma’lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo‘nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so‘z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontal bo‘yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo‘yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jixat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg‘ulotning metodik ta’minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo‘yicha konseptual jadvallarni mikroguruuhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo‘yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg‘ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o‘tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig‘ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Fakultativ o‘quv kursini o‘qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatlari filmlardan** foydalanish mumkin Shuningdek, o‘qitishning an‘anaviy va ilg‘or usullarini, shuningdek, o‘qitishning an‘anaviy va ilg‘or uslublarini, jumladan, ekspress so‘rovlari, test so‘rovlari, dasturiy o‘qitish, davra suhbatalarini o‘tkazish, muammoli o‘qitish texnik vositalarini qo‘llash, ekskursiya va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta’lim-tarbiya jarayoni mashg‘ulotlari ma’ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg‘ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo‘llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o‘quv kursini zamonaviy usulda o‘rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Reynstorming”, “Klaster” (axborotni yig‘ish), “Sinkveyn” (axborotni yig‘ish, “Akvarium”, “Charxpak”, “Gyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiysi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish).

- Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta’minlashga erishish.

- Talabalarning kichik guruhlarga bo‘lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o‘rgatish.

- ma’ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma’lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o‘qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).

- Test savollari tuzish.

- “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o’zlashtirishda ko maklashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko’rgazmali ma’ruza qilishga o’rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

## **MUSTAQIL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISH**

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o’quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo‘yicha fakultativ o’quv kurs mavzularni o’zlashtirish. Bunda o’qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.
- O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.
- O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzlucksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimini o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.
- Fakultativ o’quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishslash hamda ularni o’rganish;
- Talabalarining mustaqil ta’lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o’quv kursining muayyan mavzularni chuqur o’rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.
- Internet materiallari.
- Audio manbalar.
- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.
- Avtomatlashtirilgan o’rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

## **TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH**

Taqdimotlar fakultativ o’quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya’ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o’taydi. Taqdimotlar o’quv taqvimiylar rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

- fakultativ o’quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishslash hamda ularni o’rganish.
- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;
- audivizual manbalardan foydalanish;

– axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

## **TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI**

1. Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh talqini
2. Abdulla Oripov ijodining mamlakatimizda va xorijda o‘rganilishi
3. Abdulla Oripov she’riyatida istiqlol orzusi va mustaqillik g‘oyasining badiiy ifodasi
4. Abdulla Oripov she’riyatida Alisher Navoiy an'analarining yangilanishi
5. Milliy she’riyatda Abdulla Oripov maktabi
6. Abdulla Oripov she’riyatida Vatan va xalq obrazi
7. Abdulla Oripov she’riyatida ona obrazining badiiy talqini
8. Abdulla Oripovning hajviy xarakterlar yaratish mahorati
9. Abdulla Oripov sayohatnomalarida muallif ijodiy niyati va badiiy talqin mushtarakligi
10. Abdulla Oripov lirikasida tabiat tasviri
11. Abdulla Oripov she’riyatida inson konsepsiysi
12. Abdulla Oripov she’riyatining falsafiy mohiyati
13. “Jannatga yo‘l” dostonining ma'rifiy va adabiy-estetik ahamiyati
14. Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostonida badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi
15. Abdulla Oripovning “Ranjkom” dostonida psixobiografik talqin
16. Abdulla Oripovning “Istiqlol manzaralari” dostonida xalqona tasvir uslubining namoyon bo‘lishi
17. “Sohibqiron” dostonida Amir Temur obrazi talqini
18. “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumlarida ma'rifiy mazmun va badiiy talqin uyg‘unligi
19. Abdulla Oripov she’riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqini
20. Abdulla Oripov she’riyatining milliy adabiy-estetik tafakkur yuksalishidagi o‘rni

## **VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI MA’RUZALAR**

**Birinchi mashg‘ulot:** Abdulla Oripovning hayot yo‘li  
**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

Abdulla Oripov 1941 yil 21 mart kuni Qarshi shahri yaqinidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. Bolaligidanoq badiiy adabiyotga muhabbat qo‘ygan. Tunni tongga ulab, baxshilardan “Alpomish”u “Kuntug‘mish”ni, “Go‘ro‘g‘li”yu “Oshiq G‘arib va Shohsanam”ni, xalqona termalarni tinglagan. Alisher Navoiy, Pushkin, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’rlari uni o‘zga olamga olib kirgan. “Farhodu

Shirin”, “Layliyu Majnun”larni sehrli ovozda qiroat bilan o‘qib bergan qo‘snnisi Bibi momo suhbatlaridan ta’sirlangan. Aslan fitratida bo‘lgan tab‘i nazm uyg‘onib, she’rlar yoza boshlagan. Uning shoir bo‘lishida ”o‘choq boshidami, tandir yonidami yoki boshqa ish bilan mashg‘ul kezlaridami, qadimiy mahzun baytlarni takrorlashni xush ko‘rgan” onasi Turdi Karvon qizining, ”gaplari ma’nodor, tom ma’noda o‘zbekona, ya’ni tagdor va obrazli” otasi Orif boboning o‘rni katta.

Abdulla Oripov 1958 yili Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi. Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘sjonov kabi olimlar rahbarlik qilgan adabiyot to‘garagi shoirning ijodiy parvozida katta o‘rin tutdi. 1959 yili ”Qushcha” nomli she’ri o‘sha vaqtdagi respublika bolalar gazetasida bosilib chiqdi. 1962 yili ”Sharq yulduzi”da bir turkum she’rlari Ozod Sharafiddinov ”Oq yo‘l”i bilan e’lon qilindi. Yozuvchilar uyushmasidagi mushoiralardan birida ”Munojotni tinglab”, ”Burgut” she’rlarini o‘qib, Abdulla Qahhor nazariga tushdi. Mirtemir, Maqsud Shayxzoda singari ustozlardan unutilmas hayotiy va nazmiy saboqlar oldi. She’rlarini televizor orqali tinglagen G‘afur G‘ulom unga yaxshi tilaklar bilan dalda berdi. ”Armaniston” degan she’rini o‘qib berganda Oybek: ”Ingichka, ingichka!” deya yuqori baholadi. Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga tavsiya yozib berdi. She’rlari hukmron mafkura qolipiga to‘g‘ri kelmagani uchun boshiga malomat toshlari yog‘dirilishi kutilayotgan kezlarda Abdulla Qahhor shoirning quyidagi satrlarini ”Nurli cho‘qqilar” hikoyasiga epigraf qilib, nashr ettiradi:

*Goho yer mehrini o‘ylarkan,  
Esga tushar dorning siyog ‘i.  
Ajab hikmat: odam o‘larkan,  
Uzilganda... yerdan oyog ‘i .*

Keyinchalik ulug‘ adib ”O‘tmishdan ertaklar” asariga yosh otdoshining yana bir she’ri – ”Munojotni tinglab”dan epigraf oldi. Shoirning ilk she’riy to‘plami – ”Mitti yulduz” ustozi Mirtemir tahriri ostida chop etildi.

Abdulla Oripov she’rlari bilan tanishgan bolqor xalqining ulug‘ shoiri Qaysin Quliev unga katta ishoneh bildirib, yangi to‘plamiga so‘zboshi yozib beradi. Rus shoiri Aleksandr Tvardovskiy o‘zi muharrir bo‘lgan ”Novyy mir” jurnalida shoirning bir qancha she’rlarini e’lon qildiradi.

Universitetni bitirgach, shoir ”Sharq yulduzi” jurnali adabiy xodimligidan turli nashriyotlar muharrirligigacha, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiy maslahatchiligidan raisligigacha bo‘lgan mehnat faoliyati, Oliy Majlis deputatligidan senatorlikkacha bo‘lgan xalq vakilligi davomida katta hayot maktabini o‘tadi. O‘zbekiston Xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, davlat madhiyasi muallifi sifatida Vatan va millat taraqqiysiga munosib xizmat qildi. 2009 yildan umrining oxirigacha Yozuvchilar uyushmasining faxriy raisi sifatida adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘sidi.

Ulug‘ shoir 2016 yil 5 noyabrda o‘zi “Beruniyning aql mash’ali” bilan kashf etilgan deya ta’riflagan Amerika Qo‘shma Shtatlarining Xyuston shahrida boqiy olamga ko‘chdi.

### Interfaol metod

Mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Abdulla Oripovning shaxs va shoir sifatida kamolga erishish omillari, lirik she’rlarining falsafiy mohiyati, mavzu ko‘lami va badiiyati, sayohatnomalari va hajviy mavzudagi asarlari tahlili masalalariga bag‘ishlanishi, konferensiyada adabiyotshunos olimlar, soha mutaxassislari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari muxbirlari ishtirok etayotganini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muxbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Abdulla Oripovning shaxs va shoir sifatida kamol topishi qanday omillar bilan bog‘liq?
2. Shoir biografiyasiga oid qanday tadqiqotlar yaratilgan?
3. Abdulla Oripov she’riyatiga ustoz shoiru adiblar qandau baho bergen?
4. Shoir iste’dodining xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga misollar keltiring.

**Qo‘llash:** Abdulla Oripovning hayot yo‘liga doir ma'lumotlar mohiyatini to‘g‘ri anglab yetishda, shoir ijodiy kamoloti qirralarini aniqlashda “Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanlarining tegishli mavzulariga murojaat qilish mumkin.

**Natija:** Abdulla Oripov hayoti yo‘li to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi. Shoir biografiyasini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san’at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardorlik darajasi oshadi. Talabada shoir yashagan davr, oilaviy muhiti, adabiy davrasi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, oilaviy muhit, o‘zbek va rus mumtoz she’riyati, xalq dostonlari, mutolaa, kitob, ilm-fan.

(*Shu o‘rinda Abdulla Oripov hayot yo‘li yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi*)

**Ikkinchи mashg‘ulot:** Shoir she’riyatida milliy ruh ifodasi

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh asosan badiiy tilda, obrazlar talqinida, peyzaj tasvirida va ijodiy uslubda namoyon bo‘ladi. Shoir asarlari o‘zbek tilining jozibasini bor ko‘lami bilan aks ettiradi. Birgina misol. Mashhur “Bahor” she’rida shoir: “*Qizg‘aldoq bargidek uchar dildan g‘am, Toshqinlar kiradi qalbimga manim*” – deb yozadi. Bunday ifoda tarzi faqat o‘zbekkagina xosligi,

ushbu ikki satrda o‘zbekning so‘zi va ruhi mukammal aks etgani isbot talab qilmaydi.

Shoir she’riyatida milliy ruh obrazlar talqinida ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Buni birgina ona obrazi misolida ham ko‘rish mumkin. Ushbu obraz ijodkor asarlarida ikki ma’noda: 1) oq sut berib o‘stirgan ona; 2) ona – Vatan va millat ramzi sifatida talqin etilgani kuzatiladi. Qay bir mazmunni ifodalagan bo‘lmasin, ijodkor she’riyatida ona obrazi milliy ruh va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida yaratilgani haqiqatdir. “Onamga xat”, “Onajon”, “Onam vafotiga”, “O‘zbek onasi” kabi she’rlari buning isbotidir.

“Kuz xayollari”, “Kuz manzaralari”, “Bahor”, “Talosh pallasi” va boshqa yuzlab she’rlarida shoir peyzaj tasviri zamirida jamiyat voqyeligi bilan uyg‘un manzarani suvratlantira olgan. *Quyosh botib borar, Ufq qirmiz rang, Qurshab olayotir yer yuzini tun. So‘nggi daqiqada qilayotir jang Tun va kun, tun va kun, tun va kun.* Badiiy tasvir mukammalligi bilan birga o‘zbek ruhiyati ustuvor ekani she’rda milliy ruhning betakror talqin etilishini ta’minlagan.

Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Agar taqlid va ergashuvga asoslansa, adabiyot taraqqiy etmaydi, o‘zini yo‘qlikka mahkum etadi. Abdulla Oripovning o‘zi buni quyidagicha ta’kidlaydi: “Mayli, buyuklarga intilish bo‘lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg‘or fikrlariga oshnolik bo‘lsin, G‘arb, yevropa, Amerika deysizmi, mayli Lotin Amerikasi, mayli Oymi, Marsmi.... darajasida fikrlashsin, lekin o‘zbek fikrlasin, o‘zbekcha fikrlasin! Agar shu “kichkinagina” shart bajarilsa, qolganiga, albatta erishamiz”. Aslida, bu “kichkinagina” shartni bajarish oson emasligi ayon. Buning uchun ijodkorning qalbida o‘zi mansub millatga buyuk muhabbat tuyg‘usi jo‘sh urib turmog‘i zarur. Abdulla Oripov ana shu fazilatlarni to‘liq mujassam etgan benazir shoir, chinakam millatparvar ijodkor sifatida o‘zbek adabiy-estetik tafakkurini yuksaltira oldi.

(*Shu o‘rinda tegishli Abdulla Oripov she’riyati tahliliga doir multimedia materiallari namoyish etiladi*)

### Interfaol metod

Talabalar uch guruhga bo‘linib, 1-guruh ijod ahli, 2-guruh she’riyat muxlislari, 3-guruh esa adabiyotshunos mutaxassislar sifatida ishtirok etishadi. Mashg‘ulot davomida olingen tushunchalar asosida milliy she’riyatimizning o‘ziga xos xususiyatlari, she’r tahlili, Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh ifodasining o‘ziga xosligi xususida fikr yuritishadi. She’riyat muxlislari rolidagi talabalar bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

**Qo‘llash:** atoqli shoir va adabiyotshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** talabalar Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh ifodasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lganini, shoir asarlarida milliy ruh asosan badiiy tilda, obrazlar talqinida, peyzaj tasvirida va ijodiy uslubda namoyon bo‘lganini anglab yetishadi.

**Tayanch iboralar:** she’riyat, milliy ruh, badiiy til, obrazlar talqini, peyzaj tasviri, ijodiy uslub, adabiy-estetik tafakkur.

**Uchinchi mashg‘ulot:** Abdulla Oripov she’riyatida istiqlol g‘oyasining badiiy talqini

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

Abdulla Oripov O‘zbekiston sho‘rolar mustamlakasi iskanjasida bo‘lgan og‘ir va murakkab bir davrda adabiyot maydoniga kirib keldi. Vatanni va millatni ozod, taraqqiy etgan holda ko‘rish – uning bosh orzusi bo‘ldi. Sho‘rolar istibdodiga qarama-qarshi fikrlarini shoir kinoya va ramzlar zamirida, she‘r tagmatnida ifodalashga majbur bo‘ldi. “O‘zbekistonda kuz”, “Yuzma-yuz”, “Ona tilimga”, “Tilla baliqcha”, “Avlodlarga maktub”, “Sovg‘a”, “Olomonga” she‘rlari ana shu xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Buxoro gazining Moskvaga yetib borishi munosabati bilan yozilgan “Sovg‘a” she‘ri ham boshdan-oxir kinoyaga yo‘g‘rilgan. She‘rning sarlavhasida ham chuqur kinoya bor. Sovg‘a odatda chin ko‘ngildan beriladi. Biroq Buxoro gazi Moskvaga tuhfa o‘laroq olib borilmagani ayon. Shoir qanday qilib sevinsin axir?! Xalqimiz qiyinchiliklar girdobida tappi yopib kun ko‘rayotgan bo‘lsa-yu uning beba ho boyligi – gazini olib ketishsa... Mana bu so‘zlar achchiq kinoya mahsuli ekanini sezish qiyin emas: “*Qanday bayon qilay fikrimni axir, Mana, olib keldik o‘timizni ham*”. Buning evaziga biz qanday naf ko‘ramiz? Bu savolga shoir mana bunday javob beradi: “*Yoz payti saraton qizdirsa lov-lov, Sizdan ham shabboda kelgusi bizga*”. Sizdan faqat sovuq shabada kelishi mumkin, xolos! – Bunday fikrni aytish uchun o‘sha tarixiy vaziyatda ijodkordan hazilakam jasorat talib qilinmas edi. Bu kabi kinoyalar, ramzlar zamirida shoir qalbidagi istiqlol orzusi talqin etilgani ayon.

Ko‘nglini ana shunday armonlar o‘rtagan shoir istiqlolni behad quvonch bilan kutib oldi. 1991 yil 31 avgust kuni Oliy Majlis zalida O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilinganda, minbarga chiqib, badihatan mana bu satrlarni o‘qib yubordi:

*Adolatning hayotbaxsh shamollari yeldimi,  
Haq nihoyat xalqimning arzin qabul qildimi,  
Necha yillar orziqib kutgan kunlar keldimi,  
yelkamizga ostobning tekkanligi rost bo‘lsin,  
O‘zbekning o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin...*

Ana shu qutlug‘ kundan e’tiboran shoir har bir she’rida, matbuotdagi har bir chiqishida yurt istiqlolini kuyladi. Mustaqillikni mustahkamlash, ona xalqimiz, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbi va shuuriga hayotbaxsh g‘oyalarni singdirish ishiga butun ijodini, bor salohiyatini safarbar etdi. 1992 yili “Turkistonning bolalariga” she’rida avlodlarga: Muruvvatu ma’rifatdir buyuklikning nishonasi, Qadam qo‘ying, mana sizga dong‘il yo‘lning ostonasi, deya xitob qilgan bo‘lsa, yangi XXI asrni “Istiqlol, ketma yurt peshonasidan” deya kutib oldi. Istiqlol bergen keng imkoniyat tufayli shoir ijodida yangi sahifa ochgan “Hikmat sadolari”, “Haj daftari” turkumlari yaratildi. “Istiqlol manzaralari” dostonini yarattdi.

Abdulla Oripov to umrining so‘ngiga qadar istiqlol g‘oyasini kuyladi. Og‘ir xastalikni boshdan kechirgan paytlarida ham Vatan ozodligini asrash, xalqni baxtli ko‘rish orzusini teran mazmun va betakror mazmun uyg‘unligida badiy talqin etdi.

(*Shu o‘rinda mavzuga doir multimedia materiallari namoyish etiladi*)

## Interfaol metod

O‘qituvchi talabalarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Abdulla Oripov istiqlol g‘oyasini qaysi she’rlarida qay usulda aks ettirgan? – savoli bo‘yicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Talabalarning o‘zlari yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashish, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

**Qo‘llash:** adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** talabalarda Abdulla Oripov she’rlarida istiqlol g‘oyasining yoritilishi haqida tushuncha va tasavvur shakllanadi. Shoирning sho‘rolar istibdodini qoralab yozgan asarlarini tahlil etadilar. Milliy ozodlik ruhidagi asarlar uchun kuchli ta‘qib bo‘lgan murakkab bir davrda Abdulla Oripovning fikrni asar tagmatnida, kinoya va ramzlar zamirida berish iqtidoriga baho beradilar. Abdulla Oripovning Vatan va millat ozodligi mavzusidagi asarlari bugungi yosh avlod ongi va qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirishi jihatidan dolzarb ekanini anglab yetadilar.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, she’riyat, sho‘rolar istibdodi, Vatan, millat, istiqlol g‘oyasi, badiiy talqin.

**To‘rtinchi mashg‘ulot:** Abdulla Oripovning milliy dramatik doston taraqqiyotidagi o‘rni

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

Abdulla Oripov “Jannatga yo‘l” dramasida jamiyat hayotini, insonning ma‘naviy-axloqiy olamini badiiy tahlil etadi. Asarning obrazlari o‘ziga xos. Jumladan, Tarozibon – insonlarni ezgulikka chorlash timsoli. Diniy-ma'rifiy manbalarda oxiratda gunohu savoblar mezonga, ya‘ni taroziga solinishi aytildi, biroq aynan tarozibon haqida so‘z yuritilmaydi. Badiiy asar bo‘lgani uchun ham “Jannatga yo‘l”da bunday timsolning qo‘llanishi o‘rinli. O‘zga odam – umrini besamar o‘tkazayotgan, na o‘ziga, na jamiyatga naf yetkazadigan kimsalar timsoli. Tabiiyki, uning qilmishi odamiylikka yot. Asarda unga ism qo‘yilmagani sababi

ham shunda. Hur qiz – vafosizlik timsoli. U inson nima uchun yaratilganini, ayol zotining zimmasida qanday mas'uliyat borligini anglamay o'tgan.

"Jannatga yo'l'da tasvirlanishicha, bir mo'ysafid chol yetti marta hajga borgan, bor-yo'g'i bir martagina otasini sansiragani uchun uning aslida savob sanalgan bu amali qabul bo'limgan. Shoir bu orqali inson har qancha savob ish qilmasin, ota-onasini hurmat qilib, roziligin topmasa, amali behuda ketishi haqidagi mashhur hadisi sharif mazmuniga ishora qiladi. Asardagi O'zga odam qismati ayanchli: u na gunoh va na savobga qo'l urgan. Arosatga tushishi sababi shunda. Zero, odam bolalari o'zga jonzotlardan aqlu tafakkuri bilan ajralib turadi. Shu bois u aziz umrini imkon darajasida ezgu amallarga sarflamog'i kerak – bu obraz zamiriga singdirilgan ma'no, muallifning badiiy niyati – ana shu.

Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostoni buyuk tabib, qomusiy alloma Ibn Sino haqida. Shoir asar markaziga ajalga davo izlayotgan Hakim obrazini qo'yadi. U butun borlig'ini, bor ilmu iqtidorini ana shu ezgu maqsadga yo'naltiradi, ilm izlaydi, ma'rifat kasb etadi. Hakimga ko'ngil qo'ygan malika, uning har bir yutug'iga hasad bilan qarovchi, shuning barobarida, malikaga ega bo'lish ilinjidagi shogird – Mirzo obrazlari o'rtasidagi konflikt asardagi dramatizmni ta'minlagan. Mirzoning qalbidagi hasad uni xiyonatga boshlaydi.

Asar fojiali xotimalanadi. Xiyonatkor shogird – Mirzo sababli Hakim o'zi kashf etgan tiriklik sharbatining so'nggi tomchilaridan bebahra qoladi. Natijada u o'lim va hayot o'rtasida qoladi: *Ko'radi-yu so'zlay desa zaboni yo'qdir, Eshitadi, turay desa yo'qdir majoli*. O'zbek she'riyatida bunday original xotimalangan boshqa drama yo'q. Bu orqali shoir shogirdning ustozga xiyonati barcha zamonlarning eng og'ir fojiasi ekaniga urg'u beradi.

Abdulla Oripovning "Ranjkom" dramatik dostoni ramziy-majoziy xarakterga ega. "Ranjkom" – ranjituvchilar komiteti. Ular nashr ettiradigan jurnal nomi – "Hasharot". Asar obrazlariga ham ana shu nuqtai nazardan baho berish zarur. Rais, Birinchi a'zo, Ikkinci a'zo, Farrosh ayol, Savdoysi olim, G'oz ko'targan chol obrazlari shoir ijodiy niyatining badiiy talqiniga xizmat qilgan. Dramada qayta qurish va oshkorlik shiorlarini qalqon qilib, aslida mayda manfaati ilinjida yashaydigan amaldorlar, har qanday sharoitga tez moslashuvchi xudbinlar qilmishlari fosh etiladi.

Asardagi tasvir usuli, qahramonlar nomi hajviy-satirik asosda tanlangan. Shu bois asarda humor – kulgi o'rnida o'tkir kinoya, achchiq istehzo uslubi yetakchilik qiladi. *Safimizni kengaytirish kerak muntazam, Bu o'rinda g'o'r yoshlarning roli ko'p katta, Surbet bo'ling, surbet bo'ling, bizning shior-shu,* – satrlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Asarda jamiyatdagi salbiy illatlar qoralanadi, yovuz maqsaddagilarning birlashuvi ma'naviy-axloqiy tanazzulga olib kelishi qahramonlar harakati orqali badiiy-mantiqiy dalillanadi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra asar milliy she'riyatimizda o'ziga xos hodisa sifatida baholanishga loyiqdир.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning dramatik dostonlari bu janrning poetik jihatdan eng mukammal namunalaridir. Bu asarlari orqali shoir o'zbek dramatik dostonchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

*(Shu o'rinda mavzuga doir multimedia materiallari namoyish etiladi)*

## Interfaol metod

Talabalar 3 guruhgaga bo‘linadilar. 1-guruh Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramasing falsafiy mohiyatini, 2-guruh shoirning “Hakim va ajal” dramasini, 3-guruh “Ranjkom” asarida jamiyatdagi illatlarning qoralanishi masalasini tahlil etadilar. Mashg‘ulot jarayonida olingen tushuncha va ma’lumotlar asosida to‘g‘ri va notog‘ri fikrlash holatlari ko‘rsatib beriladi. Talabalar bildirilgan fikrlarning asosli ekaniga qarab ma’naviy rag‘batlantiriladi.

**Qo‘llash:** talabalarni Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l”, “Hakim va ajal” hamda “Ranjkom” asarlarida badiiy talqin etilgan g‘oyalar bilan tanishtirish ulug‘ shoirning o‘zbek dramatik dostonchiligi rivojiga qo‘sghan hissasini tushunishda qo‘l keladi. Shoirning badiiy mahoratini xolis ilmiy baholash imkonini beradi.

**Natija:** Talabalar Abdulla Oripov dramatik dostonlari mohiyatini, ushbu janrdagi asarlarining bugungi yosh avlod ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnin tushunuib yetadi va bu haqda aniq tasavvurga ega bo‘ladi.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, dramatik doston, badiiy konflikt, obraz, qahramon, tasvir usuli, kinoya, satira, hajviy xarakter, badiiy talqin.

## MULOQOTLAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazining badiiy ifodasi.

**O‘tkazish shakli:** muloqot.

Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazi yuksak bir mavqeda turadi. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” – bunday savolni ungacha hyech kim bu tarzda kun tartibiga qo‘ya olmagan edi. Buning o‘scha zamon uchun qanchalik jasorat bo‘lganini e’tirof etmaslik mumkin emas. She’rning badiiy xulosasi ham shoirning o‘z sozi va o‘z ovoziga mos: *Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo.*

“O‘zbekiston” qasidasida ona yurtimizning muazzam kechmishi va bugunini bor murakkabligi bilan betakror poetik tasvirlangan. Shoir ona Vatanining tarixi nechog‘lik muazzam ekanini his etadi, “ikki asr yarim dunyoni zir qaqqhatgan” buyuk jahongir Amir Temur bilan faxrlanadi. Osmon ilmi Ko‘ragoniy jadvallarida tug‘ilganidan g‘urur hissini tuyadi va birdaniga Mirzo Ulug‘bekning fojiali qismatidan so‘z ochadi. “*Yerda qolgan, o, tanim manim*” misrasida bu buyuk shaxs fojiasi bor ko‘lami bilan namoyon bo‘ladi. Kolumb va Beruniy obrazlari tasvirida ulug‘ mutafakkir bobolarimiz aql mash‘ali yoritgan kashfiyotlarni boshqalar o‘zlashtirib ketishiga yo‘l qo‘yganimizdan taassuf ruhi sezildi. Har bir bandda takrorlanib keluvchi “O‘zbekiston – vatanim mani” misrasi qasidada ifodalangan tarix va zamon ruhini yaxlit tizimga birlashtirib turadi. Har bir bandda takrorlanib keluvchi “O‘zbekiston – vatanim mani” misrasi qasidada ifodalangan tarix va zamon ruhini yaxlit tizimga birlashtirib turadi.

“Qarshi qo‘shig‘i” she’rida bahori sog‘intirgan ona diydori singari shirin, maysalari yelda “oyoqlangan qo‘ziday dovdiraydigan” bu sirli ma’voga bo‘lgan sog‘inchini, mehrini chuqur mazmun va go‘zla badiiyat bilan izhor etadi. Bu zaminning murakkab va ziddiyatli tarixini yorqin va ta’sirchan bo‘yoqlarda aks ettiradi. “*Birining qurbanini boshqasi vayron qilgan*” fotih Iskandar izlaridan, Qutayba dahmalaridan, Chingiz vahimasi va dag‘dag‘alaridan so‘z ochadi. Tarix va zamonni qiyoslaydi. Jazm etsa, jahon xaritasini ham ko‘kka bo‘yashga qudrati yetadigan xalqini ulug‘laydi. She’rning har bir satridan, har bir so‘zidan ona zaminga, uni obod qilayotgan zahmatkash va irodasi mustahkam elga muhabbat tuyg‘usi yaqqol namoyon bo‘lib turadi.

“Vatan! Mening bor qismatim shu bir so‘zda hal”, deb yozgan shoir bu orqali Vatanning ulug‘ ne’mati ekanini, uni tanlash imkoniyati berilmasligi, uni sevmaslik, unga fido bo‘imaslik mumkin emasligini ifodalaydi.

Umuman, Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. O‘quvchi qalbida ana shu beqiyos ma’voga chuqur va samimiy muhabbat uyg‘otadi.

### Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentidan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak).
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘shimcha fikr bildirishi va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

- 1-jamoaga. Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazi qanday o‘rin tutadi?
- 2-jamoaga. Shoirning Vatan mavzuidagi she’rlarida nima uchun tarixga ko‘p murojaat etiladi?

3-jamoaga. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasidasini tahlil eting.

**Qo‘llash:** mashg‘ulot adabiyotshunos, jurnalist, ma’naviyat targ‘ibotchilar, katta ish tajribasiga ega mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Talabalar Abdulla Oripovning Vatan obrazi talqiniga doir asarlari bilan yaqindan tanishadilar. Shoir she’rlarida Vatan tarixi va zamon mavzusi uyg‘un tasvirlanishi, ijodkorning badiiy mahorati bilan bog‘liq ilmiy qarashlarni o‘zlashtiradilar.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, she'r, she'riyat, ijod, Vatan obrazi, ona zamin, tarix va zamon uyg'unligi, badiiy talqin.

**Ikkinchchi mashg'ulot:** Abdulla Oripov she'riyatida xalq obrazi

**O'tkazish shakli:** muloqot

Abdulla Oripov she'riyatida xalq obrazi uch xil mazmunda qo'llangani kuzatiladi: 1) *o'zi mansub millat*; 2) *onaga qiyoslanuvchi suyukli el*; 3) *xalq darajasiga o'sib chiqmagan olomon*. Qay bir mazmunda qo'llanmasin, xalq obrazi ijodkor badiiy-estetik idealining asoslaridan birini tashkil etadi.

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she’rida “xalq” *millat* tushunchasini ifodalab kelgan. She’rda Vatan (*O‘zbekiston*) va xalq (*millat*) obrazlari o‘zaro mantiqiy yaxlitlik kasb etadi. Shoир talqinicha, Vatanni sevishdan murod – xalq Ona xalqning istiqomat maskani ekani bois Vatan – ko‘ngil qo‘ymasa bo‘lmaydigan ma’vo. She’rda: *Xalqim, tarix hukmi seni agarda Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi, Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding, Mehrim bermasmidim o’sha muzlarga?* – deyilishining sababi shunda. “O‘zbekiston” qasidasida shoир ona xalqini *baridan suyuk, buyuk sifatlari bilan ulug‘laydi, jontanim* deya e’zozlaydi. She’rda shoirning xalqiga bo‘lgan mehri Vatanga muhabbati bilan uyg’unlikda tasvirlanadi. Abdulla Oripov buyuklarga daho baxsh etgan, eng so‘nggi nonini ham o‘zi yemay o‘g‘liga tutgan, farzandlar shonini asrlardan opichlab o‘tgan, suyuklardan suyuk ona xalqini jonu tan barobarida ardoqlaydi. Muhimi, bu tuyg‘uni badiiy kashfiyat darajasida talqin etadi. “Xalq” she’rida ona xalqiga bo‘lgan muhabbatini *“Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq”* iborasi orqali ifodalaydi. “Yuzma-yuz” she’rida shoир ona xalqimizning g‘amu anduhlari, dardu iztiroblarini tasvirlashda kinoyadan mahorat bilan foydalangan. U soflik va ma’sumlik timsoli bo‘lgan yulduzlarga xitob qilib, “yel tinsa ham tinmaydigan, zahmatkash, ishparast, munis”, pishirgan taomidan o‘zi benasib, birov larga kiygazib o‘zi yupun, yulduzni kashf etib avom nomini olgan xalqining achchiq qismati haqida so‘zlaydi. “Million egatlarga sochilgan o‘zbek”, “rangpar singil” singari obrazli tasvirlar vositasida elning og‘ir ahvolini tasvirladi, ona yurtining ozod, xalqining qaddi tik bo‘lishini orzu qildi. “Olomonga”, “To‘da” kabi she’rlarida shoир ham xalq darajasiga o‘sib chiqmagan bu ikki tuban toifaning odamiylikka zid va jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi to‘siq ekanini ta’sirchan ifodalaydi.

Umuman, Abdulla Oripovning xalq obrazi badiiy talqin etilgan she’rlari barcha zamonlar yoshlari qalbida xalqparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

### Interfaol metod

Ushbu mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Abdulla Oripov

she’riyatida xalq obrazining badiiy talqini mavzusiga bag‘ishlanishini aytadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, soha mutaxassislari, shuningdek, jurnalistlar ishtirok etayotganini bildiradi.

“Matbuot konferensiyasi”da jurnalistlar rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Abdulla Oripov she’rlarida xalq obrazi qanday ma’nolarda qo‘llangan?
2. Xalq obrazi tasvirlangan she’rlarida shoirning tarixga ko‘p murojaat etishi sababi nimada?
3. Ona xalqiga bo‘lgan muhabbat Abdulla Oripov taqdirida qanday o‘rin tutadi?

**Qo‘llash:** mashg‘ulot adabiyotshunos, jurnalist, ma’naviyat targ‘ibotchilari, katta ish tajribasiga ega mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Talabalar Abdulla Oripov she’rlarida xalq obrazi *o‘zi mansub millat; onaga qiyoslanuvchi suyukli el; xalq darajasiga o‘sib chiqmagan olomon* ma’nolarida qo‘llangani haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Yosh avlod ongi va ruhida xalqparvarlik tuyg‘usi mustahkamlanadi.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, she’riyat, ijodkor badiiy-estetik ideali, xalq, millat, suyukli el, olomon, badiiy talqin.

## MUNOZARALAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Abdulla Oripov sayohatnomalari badiiyati

**O‘tkazish shakli:** munozara.

Abdulla Oripov dunyoning ko‘plab mamlakatlariga sayohat qilgan. Jumladan, shoir Italiya, Shveytsariya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Turkiya va Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘lgan. Uning “Haj daftari”, “Yapon ohanglari”, “Jeneva daftari”, “Italiya taassurotlari”, “Turkiya daftari”, “Ummon orti ilhomlari” singari turkumlari ana shu sayohatlari davomida ijod qilingan. Shoirning sayohatnomasi deb atayotganimiz barcha turkumlarida quyidagi muhim masalalar badiiy talqin etilgan: 1) falsafiy umumlashmalarning badiiy ifodasi; 2) ona Vatan sog‘inchi; 3) milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqini.

Ижодкор sayohatnomalari orasida, jumladan, Yaponiya mavzusi alohida o‘rin tutadi. Bu xalqning salohiyatiga dunyo qoyil ekanini ta’kidlagan shoir, yaponlarning hatto “burgani taqalab qo‘ya olishi”dan hayratga tushadi. Burgani taqalash – chinakam jozibali poetik tasvir, o‘zbekona ifoda! Eng muhimi, shoirning bu to‘rtligi odamni mushohadaga, o‘z ahvoli haqida fikrlashga undaydi. Unda umr deb atalmish ne’matni qadrlash, uni behuda o‘tkazmaslik to‘g‘risidagi falsafiy qarash faqat Abdulla Oripovga xos uslubda betakror badiiy talqin etilgan:

*Sening amalingga qoyildir jahon,  
Burgani taqalab qo‘ygaysan oson.  
Nozik san‘atingga tikilaverib,  
Ko‘zlarim qisilib ketdi-ku, yapon.*

Abdulla Oripovning “Jeneva daftari” turkumi teran falsafiy umumlashmalarning ohorli poetik ifodasi bilan alohida ajralib turadi. Jenevada safar qilar ekan, shoir jahon karvonida maqomi butun bo‘lgan ona Vatani – O‘zbekistonni madh etadi, unga she’riy maktub yo‘llaydi. Ana shu turkumga kirgan “Sog‘inch” she’ri xorijda yurib, ona-zaminni qo‘msagan shoirning betakror ko‘ngil izhoridir.

Safarnomalarda shoir she’riyatidagi Vatan talqini yangi miqyoslarga yuksalganini ta’kidlash kerak. Ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usi ko‘ngil sarhadlaridagi fikr g‘alayoni bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. “Jeneva daftari” turkumidagi “Musofir” she’ri bu jihatdan, ayniqsa, xarakterlidir. Shoir talqinicha, ona-yurtida yashayotgan odamning baxti shundaki, u o‘zi tug‘ilib o‘sgan zamin tuprog‘ini o‘pmoq, bundan quvonch hissini tuymoq imkoniga ega. Musofir esa bundan mosivo: “*U o‘zin qo‘yarga joy topa olmas – Musofir osmonga boqqay mo ‘ltirab*”. Shoir musofirlilikning, Vatanda yashashdan mahrumlikning naqadar fojia ekanini ta’sirchan satrlarda ifodalaydi.

Abdulla Oripov safarnomalari milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqiniga doir badiiy kashfiyotlarga ham benihoya boy. Umuman, shoir safarnomalari teran mazmuni, betakror badiiyati bilan o‘zbek she’riyati rivojida alohida o‘rin tutadi.

## Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak).
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘srimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘srimcha fikr bildirishi va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

- 1-jamoaga. Abdulla Oripov sayohatnomalarida qanday mavzular yoritilgan?
- 2-jamoaga. “Yapon ohanglari” turkumining shoir sayohatnomalari takomilida tutgan o‘rnini baholang.
- 3-jamoaga. “Jeneva daftari” turkumidagi “Musofir” she’rini tahlil qiling.

**Qo‘llash:** mashg‘ulot adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi, ma’naviyat targ‘ibotchilari bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** talabalar Abdulla Oripov sayohatnomalarining mavzu ko‘لامи, ifoda uslubi bilan tanishadilar. Cayohatnomalar tahlili asosida ularda shoirning falsafiy

qarashlari, Ona Vatan vasfi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqinining ahamiyati haqida tasavvur hosil qiladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, sayohatnoma, badiiyat, falsafiy umumlashma, ona Vatan sog‘inchi, musofir, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, uslub, badiiy talqin.

**Ikkinci mashg‘ulot:** Abdulla Oripovning hajviy xarakter yaratish mahorati  
**O‘tkazish shakli:** munozara.

Abdulla Oripov she’riyatida hajviyot alohida o‘rin tutadi. Shoир “Tulki falsafasi”, “Yozg‘uvchilikka ariza”, “Temir odam”, “E’tiqod” kabi she’rlari, “Jannatga yo‘l”, “Ranjkom” dramalarida betakror hajviy xarakterlar va obrazlar orqali insonga hamda jamiyatga xos kamchilik va nuqsonlarni fosh etadi.

Shoир asarlarida hajviy tip va xarakterlar ikki xil uslubda hajvgaga olinadi: 1) asar qahramonining portreti vositasida; 2) salbiy tiplar nutqi orqali. Jumladan, shoирning “Hasadgo‘y haqida” to‘rtligini mutolaa qilgan o‘quvchi ko‘z o‘ngida hasad qilaverGANidan ichi qorayib ketgan kimsaning chirkin qiyofasi gavdalanadi:

*O‘chi oddiygina,  
Kam yo‘q ishida.  
Tonnalab ko‘mir bor  
Lekin ichida.*

Salbiy tiplar nutqi orqali o‘z-o‘zini fosh etishi Abdulla Oripov hajviy uslubining asosiy xususiyatlardan biridir. “Haj savobi” she’rida Ka’batulloh ziyoratiga borgan-u lekin muborak safar va ushbu farz ibodat mohiyatini anglab yetmagan personaj xarakteri ana shu uslubda ochib berilgan. Muxbir bilan suhbat natijasida hoji boboning asl maqsadi ziyorat emas, tijorat bo‘lganidan darak beradi. Ka’batullohning darvozasi haqidagi savolga asar qahramoni u yoqlarning bozori maqtovga loyiq ekani, xaridorlar durbin so‘rashganidan hayratga tushganini aytib javob beradi. Arafot, Miyno mashaqqatlari, Shaytonga tosh otish marosimiga doir taassurotlarini so‘raganda, “Bozorchisi soddagina arab desam, Muxbir bolam, bizlardan ham shayton ekan” tarzida javob oladi. Payg‘ambar alayhissalomning dahmasi haqidagi savolga olib borgan atlasi arzon ketgani-yu u yoqlarda asal qimmat ekani haqida so‘zlaydi. Ma'lum bo‘ladiki, personajning har bir so‘zi kirga botgan ichki olamini, tor dunyoqarashini, manfaat bandasi ekanini fosh eta boradi. She’r muxbirning savobdan gapirib, savdodan tinglagani haqidagi e’tiroziga hoji boboning: “Bunday makruh savollarni kim o‘rgatdi, Muxbir bolam, haj savobi dilimdadir”, degan javobi bilan xotimalanadi. Bu orqali shoир tili boshqa, dili boshqa, iyomon-e’tiqod, dinu diyonat kabi tushunchalardan mutlaqo yiroq, jaholat bandasi bo‘lgan “hoji” bobo xarakterini yorqin tasvirlaydi.

Abdulla Oripov asarlaridagi hajviy xarakterlar jamiyatdagi va odamlardagi nuqsonlargautilgan oyna, deyish mumkin. Ushbu adabiy oyna barcha zamonlarda

kishilarga malohatiyu qabohatini ham, yutuqlariyu kamchiliklarini ham ko'rsatishi, tuzatish imkonini yaratishi jihatidan ahamiyatlidir.

## Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Insert texnikasi" metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmalarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi. Shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi. O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi. Talabalar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgililar orqali ifodalaydi. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

"V" – tanish ma'lumot.

"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

"Q" – bu ma'lumot men uchun yangilik.

"—" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman.

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi. Ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

**Natija:** talabalar ushbu mavzuni o'rghanish davomida hajviy asarlarning alohida shaxslar va jamiyat miqyosidagi kamchilik va nuqsonlarni isloh qilishga xizmat qilishi, Abdulla Oripov taraqqiyotga to'siq bo'luvchi ana shunday kimsalar xarakterini ularning portreti va nutqi orqali ochib bergani haqidagi ma'lumotlarni o'rghanadilar.

**Tayanch tushunchalar:** ma'rifatparvarlik, jadidchilik, ilm-ma'rifat, Vatan ozodligi, millat taraqqiysi, ta'lim islohi.

## TAQDIMOTLAR

**Birinchi mashg'ulot:** "Sohibqiron" dramasida Amir Temur obrazi tasviri

**O'tkazish shakli:** taqdimot

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi Amir Temur obrazi yaratilgan ko'plab asarlardan farq qiladi. Bu farq, birinchidan, ushbu tarixiy obraz tasviriga tarixiy va badiiy haqiqat mezonlari asosida yondashilganida ko'rinsa, ikkinchidan, buyuk jahongir xarakterining yorqin bo'yoqlarda mahorat bilan tasvirlanganida namoyon bo'ladi.

Asar uchun Sohibqiron hayotidagi eng xarakterli, hatto eng fojeiy voqyealar – Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasidagi jang hamda jahongirning Xitoyga yurish taraddudlari asos qilib olingan. Bu voqyeaning xarakterli ekani Amir Temur obrazining tabiatini yorqin ochib berilgani bilan ifodalansa, fojeiyligi ikki buyuk jahongirning jangi ularning har ikkisi mansub turkiy millatning tanazzuliga xizmat qilganida edi. Shoir tarixiy voqyealarning tashqi belgilaridan ko'ra ichki tomoniga – mohiyatiga ko'proq ahamiyat qaratadi.

Dramada Amir Temur obrazi inson sifatida ham, ulkan sultanat hukmdori sifatida ham badiiy jihatdan mukammal tasvirlangan. Jumladan, jangu jadallarda yurar ekan, u betob farzandi yoki nevarasi haqida qayg'uradigan, kelini Xonzodabegim qismatini o'ylab, o'g'li Mironshohni jazolashdan qaytmaydigan zarur o'rinda mehr, kerak bo'lganda qahr ko'rsata oladigan ota obrazida namoyon bo'ladi. Sohibqironning adabiyotga bo'lgan Hofiz Sheroziy bilan she'riyat haqidagi suhbatlari, bahslari orqali tasvirlanadi. "*O'z tilida tinglash uchun Hofiz she'rini, Qayta boshdan zabit etardim Eron yerini*" misralari Amir Temurning ayni fazilatini yorqinroq ochishga xizmat qilgan. Buyuk fotih, mohir lashkarboshi jang maydonida taslim bo'lgan g'animiga g'azabini sochishdan o'zini tiya bilgani, askarlariga mehr bera bilishi, ular orasidan qahramonlik ko'rsatganlarini munosib taqdirlashi, qo'shinni sultanatning ustunlaridan biri hisoblashi ta'sirchan va ishonarli badiiy lavhalar orqali ko'rsatilgan.

Asarning so'nggi pardasida berilgan yechim Amir Temur hayotidan olingan tarixiy voqelarning dramatik tasviriga xulosa vazifasini o'tagan. Unga ko'ra, Xitoyga lashkar tortayotgan Sohibqiron hazrat Ahmad Yassaviy ruhidan oq fotiha olmoqchi bo'ladi. Piri komil huzuridagi hukmdor hayoti tinimsiz jangu jadal bilan o'tgani, balki qancha umrlarga zomin bo'lgani haqida so'zlab, "Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?" – deya savol bilan murojaat etadi. Hazrat Yassaviyning javobi quyidagicha:

*Niyat qancha jozibali bo 'lsa-da, Temur,  
Qilich bilan murod hosil bo 'lmog'i gumon.*

Pirining ushbu so'zlariga qaramay, qat'iy maqsadidan qaytmagan Temur hayoti yakun topadi.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi Amir Temur obrazi eng mukammal yaratilgan asarlardan biri sifatida milliy adabiyotimiz taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

**Qo'llash:** mashg'ulot adabiyotshunos, pedagog, tarixchi, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** talabalar Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasini o'rganish orqali ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar. Asarda Amir Temur qat'iyatli odam va adolatli hukmdor, mohir lashkarboshi va fozil shaxs sifatida tasvirlangani haqida tushuncha hosil qiladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov, Amir Temur, drama, janr, obraz, badiiy talqin, бадиият.

**Ikkinci mashg'ulot:** "Hikmat sadolari" va "Haj daftari" turkumlarining Abdulla Oripov ijodida tutgan o'rni

**O'tkazish shakli:** taqdimot

Istiqlol Abdulla Oripov ijodida islomiy-ma'rifiy mavzu talqini borasida yangidan yangi sahifalarni ochdi. Shulardan biri – "Hikmat sadolari" turkumi.

Hazrat Alisher Navoiy “Arba'in”i yo'lida shoir dastlab muborak qirq hadis mazmunida she'rlar yozdi. Keyin esa, bu turkum ustidagi ijodiy ishni yana davom ettirdi. Muborak hadislarga nazmiy sharh yozar ekan, shoir ularni qayta hikoya qilmaydi, she'rlarning mazmuniy, shakliy qurilmasini o'zi ijod qiladi. Turkum uchun uchun bir xil – o'n ikki misralik shakl tanlangan. Ularni mavzu jihatdan quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) iymon-e'tiqodga oid nazm namunalari; 2) yaxshilikka chorlov; 3) yomonlikdan qaytarish. Iymon-e'tiqod mavzuidagi “Ibodat”, “Me'roj”, “Vahiy”, “Hordiq”, “Ibrat”, “Bilol Habash” singari she'rlar o'quvchi qalbiga nur olib kiradi, sog'lom e'tiqodni tarbiyalashga xizmat qiladi. “Hordiq” she'rida tasvirlanishicha, Arab sahosida yo'l yurgan karvon bir manzilga kelgach, qo'nim topadi. Shu karvonda kelayotgan Rasululloh (s.a.v.) taqir joyda, to'shaksiz hordiq chiqarmoqni ixtiyor etadi. Bundan ta'sirlangan sahobalar ko'zlarida yosh bilan iltijo qiladi: “Yo, Rasululloh, hyech qursa bo'yrada yoting!” Shoir she'rni quyidagicha xulosalaydi: *Rasululloh dedi: – O'ylamang, aslo Fanodan men rohat kutayotirman. Bu dunyo daraxtning soyasi go'yo, Men undan ot minib o'tayotirman.*

Bir-biriga o'lim tilagan kishilarning har ikkisi do'zaxiy ekani; marhumlarning amal daftari yopilgani, ular ortidan tosh otish nomaqbulligi; o'zgalarni kamsitish ayb ekani; musulmon ummatining hasad va riyodan qaytarilgani haqidagi hadislarga bitilgan nazmiy sharhlar ham shoirning benazir ijodiy salohiyatini tasdiqlaydi.

Abdulla Oripov qay bir mamlakatga safar qilmasin, dunyodagi qaysi bir o'lkaga doir taassurotlarini qalamga olmasin, ona yurtga bo'lgan muhabbat bosh mavzu bo'lib qolaveradi. Bu yo'nalishdagi she'rlarida ijodkor ona zaminga bo'lgan muhabbatini ifoda etar ekan, millatning o'tmishdagi dardlarini, ko'ngil jarohatlarini eslamay o'tolmaydi. “Haj daftari” turkumini ochib beruvchi “Ka'batulloh” she'rida ham shoir necha zamonlardan buyon “biri ikki bo'limgan yurti, bag'ri xun, tolei kulmagan eli” dan so'z ochadi. Bu “ulug’ yurt bandi bo'lgan kunlar”ni; “ig‘vo, firib, razolat avj olib, yetim adolat bir chetda yig‘lagan” onlarni; “ilmi borlar xor bo'lgan, zar bilan e'tibor topgan hiylagaru makkorlar avj olgan” zamonlarni iztirob bilan xotirlaydi. “Insofu diyonat unutilgan, tomirlardagi qon aynigan, haqiqat yo'qligi bois yolg'on yashnagan” kezlarni alam bilan qalamga oladi. Istiqlol bois “yurt hidoyatga yuz burgani uchun shukrona” aytadi, “Haq degan ona zamin baxtini so'rab” iltijolar qiladi. Turkumdag'i eng dardchil, teran falsafa bilan sug'orilgan she'rlar mo'tabar siymo – ona vasfiga bag'ishlangan. Shoir Ka'ba qopqasida turgan posbonga xitob qilib, uni avval onalarning yo'llarini ochishga, ularning poyiga tiz cho'kib, tavof qilishga, qo'llarini o'pib, ko'zga surtishga chaqiradi. Sababi shundaki: *Hojar onamizning nidosi sabab Ka'bada ko'z ochgan Obi Zam-zam ham. Bir umr talpin mish onaga qarab, Ne-ne payg'ambarlar ko'zlarida nam.*

Shoir ona sha'nini yuksaklarga ko'targani uchun o'z qavmi – erlar ranjimasligini so'raydi. Er zoti tobut yasab kelgan bo'lsa, bag'riga beshikni jo qilib, hayotbaxsh allalarni aytgan – onalar ekanini qiyos uchun keltiradi. “Sho'rlik

odamzodning tolei uchun eng avval onalar ibodat qilishini” istaydi: *Zora gunohlardan pok bo‘lgay ochun, Onalar o‘tinchi topib ijobat*.

Umuman, Abdulla Oripuning “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumlari zamonaviy o‘zbek she’riyatida ilohiy-irfoniy tuyg‘ular ifodasining yuksak namunasi ekani bilan alohida ajralib turadi.

**Qo‘llash:** mashg‘ulot adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi, ma’naviyat targ‘ibotchilar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** talabalar Abdulla Oripuning “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumlari mohiyati, shoir ijodida tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov ijodiyoti, she’riyat, islomiy-ma'rifiy mavzu, hadislarning nazmiy talqini, ona yurt muhabbati, haj ma'rifati.

## **IX. O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLAR RO‘YXATI**

### **Асосий дарслик ва ўқув қўлланмалар**

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар –Тошкент: Sharq, 2019.
2. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015.
3. Назаров Б. Абдулла Орипов. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юрти талabalari учун дарслик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
4. Кўшжонов М. Абдулла Орипов. /Танланган асарлар – Тошкент: Sharq, 2018.

### **Кўшимча адабиётлар**

1. Абдулҳакимова О. Ижод оламининг сирлари. //Шарқ юлдози, 2019. – Б.144-148
2. Абдурахмонов Қ. Буюклар каҳкашонида. Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2018
3. Жабборов Н. Гўзал ташбих, сирли рух. /Озод Ватан саодати: Беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: Адиб, 2013, 315-326-бетлар.
4. Жабборов Н. Киноя ва рамзлар замиридаги ҳақиқат. /Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 3-17.
5. Жўрақулов У. Армон талқинлари. /Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. –Б. 143-151.
6. Йўлдош Қ. Сувратланган миллий рух. /Сўз ёлқини. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015.
7. Кўчимов А. Мен шоирман, истасангиз шу... – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2018.
8. Мели С. Сўзу сўз. – Тошкент: Sharq, 2020.
9. Улугов А. Асл асарлар сехри. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015.

10. Шарафиддинов О. Мувашшах. /Танланган асарлар – Тошкент: Sharq, 2019. –Б. 108-128.
11. Шодмонов Н. Шоир ижодининг олмос қирралари. /Ўзимники эрур шу созим. – Қарши, 2011. – Б. 44-54.
12. Қўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. – Тошкент: Маънавият, 2000.

#### **Elektron resurslar**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. [www.centrasia.org](http://www.centrasia.org)
3. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
4. [www.kitobxon.com](http://www.kitobxon.com)
5. [www.qr.natlib.uz](http://www.qr.natlib.uz)
6. [www.media.natlib.uz](http://www.media.natlib.uz)
7. [www.diss.natlib.uz](http://www.diss.natlib.uz)